



# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!www.zarnews.uz [@zarnews\\_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)2023-yil 12-avgust, shanba,  
96 (23.817)-son

**KUN  
HIKMATI**  
Yaxshilik  
birdan ko'zga  
tashlanmaydi,  
ammo yomonlik  
darhol  
bilinadi



## YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

### Mas'ullar deputatlarga hisobot berdi

11-avgust kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining 89-sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyani Kengash kotibi yati mudiri Z.Karimov boshqardi.

Dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatি Samarcand hududiy filiali rahbari Umid Nazarov va "Hududgaz Samarcand" gaz ta'minoti filiali direktori Anson Muhammadiyevning hisobotlari eshitildi.

U.Nazarovning ta'kidlashicha, joriy yilda ijtimoiy soha muassasalarida o'rnatilgan 786 dona quyosh panel hisobiga 12,4 MW, 3266 ta aholi xonadonlariga o'rnatilgan quyosh panellar hisobiga 3,55 MW, 346 ta tadbirkorlik subyektlariga o'rnatilgan quyosh panellar hisobiga 3,6 MW elektr energiyasi iqtisod qilingan.

Davlat rahbari qarorida belgilanganidek korxona va tashkilotlar, muassasalar va aholi xonadonlarida quyosh panelari o'rnatish ishlari davom etmoqda. Ammo bu vazifa barcha joylardan ham birdek ijo etilmayapti.

Mujobil energiya manbalaridan foydalanyotgan subyektlarning aksariyati elektr tarmoqlari korxonalar bilan shartnoma imzolamagan. Vaholanki, bu orqali ular ko'plab imtiyoz va yengilliklarga ega bo'lishlari mumkin.

Soliq.uz mobil platformasi orqali "Quyoshli xonadon" dasturiga kiritish ishlari ham talab darajasida emas. Bugungi kunda bor-yo'g'i 402 ta xonadon bo'yicha arizalar ro'yxtag olinib, shartnomalar tuzilgan.

16 ta ko'p qavatli uylarga quyosh panelari o'rnatilishi belgilangan bo'lib, bugungi kunda faqatgina Payariq tumanida 20,0 kW-h elektr energiyasi ishlabi chiqarish imkoniga ega bo'lgan quyosh paneli qo'yilgan, xolos.

"Hududgaz Samarcand" gaz ta'minoti filiali direktorining hisobot berishicha, Prezident qarorining 8-ilovasiga muvofiq, viloyat bo'yicha 523 ta ijtimoiy soha obyektni, jumladan, 229 ta umumiyligi maktabi, 223 ta maktabgacha ta'lim muassasasini hamda 71 ta tibbiyot muassasasini tabiiy gazdan ko'mir yoqilg'isiga o'tkazish rejalashtirilgan. Bugungi kunga qadar 453 ta ijtimoiy soha obyektiga tabiiy gaz yetkazib berish vaqtinchalik to'xtatilgan.

Ikkala soha mas'ullari energiya manbalarini tejash va ularidan samarali foydalanan borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham ma'lumot berib, o'z takliflarini bildirdi.

Shundan so'ng viloyatda 2023-yilning I yarim yilligida davlat va mahalliy budget daromadlari proqnoz ko'rsatkichlarining ijrosi to'g'risida viloyat iqtisodiy va moliya bosh boshqarmasi boshlig'ining hisoboti ko'rib chiqildi.

Ma'lum qilinishicha, birinchi yarim yilligda umumiy daromadlar proqnoz rejasi 2 313,8 milliard so'mga (105,9 foiz) bajarildi. Viloyat, tuman va shahar hokimliklari ixtiyorida 171,4 milliard so'm mablag'ning qo'shimcha manbasi yaratildi. Ammo aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslardan olinadigan yer soliq'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq rejasi bajarilmagan.

Yilning birinchi yarimida viloyat mahalliy budgetining xarajatlar qismi 89 foizga ijo etilib, 4 trillion 161,3 milliard so'mlik xarajatlar amalga oshirildi.

Sessiya kun tartibiga ko'ra, viloyat IIB boshlig'ining o'rinosi – jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i Xondamir Umarov 2023-yil I yarim yilligida viloyatda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisobot berdi.

– Viloyat hududida joriy etilgan va bugun "Samarqand tajribasi" sifatida e'tirof etilayotgan mahalla beshligi tizimining samarali faoliyati, olib borilgan profilaktik chora-tadbirlar natijasida barcha sohalari bo'yicha qayd qilingan jinoyatlar soni 100 ming aholiga nisbatan viloyat bo'yicha 78,4 tani (respublikada 137,5 tadan) tashkil etdi. 1126 mahallaning 643 tasida jinoyatlar sodir etilmadidi. 307 mahalla "qizil" toifadan "sariq" toifaga o'tkazildi, – deydi X.Umarov. – Yil boshidan buyon o'tkazilgan profilaktik tadbirlar davomida 86600 dan ortiq turli ko'rnishdagi huquqbuzarliklar aniqlanib, tegishli tartibda huquqbuzarlarga nisbatan ma'muriy choralar ko'rildi. Xotin-qizlarning jinoyat va huquqbuzarliklar qurbanli bo'lischening oldini olish maqsadida tazyiq va zo'rovlonlikdan jabrlangan 977 nafrayayolga "Himoya ordeni" berilib, zo'rovlonlik sodir etgan shaxslari ustidan nazorat o'rnatildi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida o'tkazilgan tadbirlar davomida 2554 holat aniqlanib, 32 holat yuzasidan mas'ul shaxslarga nisbatan 2522 holatda voyaga yetmaganlarning ota-onasiga belgilangan tartibda ma'muriy choralar ko'rildi.

Probatsiya hisobida jazoni o'tayotgan shaxsining 1425 naftari ishga joylashtirildi, 38 nafarining sog'lig'ini tiklashiga yordam ko'rsatildi, 3 nafta uy-joy bilan ta'minlandi, 43 naftariga turli asbob-uskunalar berildi.

Sessiyada viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig'i Botir Shaymatov viloyatda joylashgan moddiy-madaniy meros obyektlari va madaniy boyliklarni aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, asrash va ulardan oqilona foydalishan, muzej ashayolari va musey kolleksiyalaringin but saqlanishi holati yuzasidan axborot berdi.

B.Shaymatovning ma'lum qilinishicha, bugungi kunda viloyatda 1607 ta moddiy-madaniy meros obyekti ro'yxtagda olinigan. Ularning 973 tasi arxeologiya, 564 ta arxitektura obyektlari hisoblanadi. Moddiy-madaniy meros obyektlarining 815 tasi muhofaza belgilari, 244 tasi yo'l ko'rsatkichlar bilan ta'minlandi. Viloyatdagi madaniy meros obyektlariga 1537 naftar jamaotchi inspektorlar biriktildi va 1537 ta moddiy madaniy meros obyektlining davlat kadastr hujjatlari shakllantirildi.

Sessiyada viloyat sektor rahbarlarining hududlari kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha ishlarni tashkil qilish bo'yicha "yo'l xarita"larini tasdiqlash to'g'risidagi, viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalanan to'g'risidagi, xalq deputatlari viloyat Kengash deputatlari odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risidagi, yuridik shaxslarning mol-mulk soliq'i, yer soliq'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash muddatini kechkitirish to'g'risidagi, jamoat ehtiyojlarini uchun yer uchastkalari olib qo'yilishiga ruxsat berish to'g'risidagi va boshqa tashkiliy masalalar ko'rildi.

Ko'rib chiqilgan barcha masalalar yuzasidan Kengash qarorlari qabul qilindi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yil 1-yanvar holatiga viloyatimizda uy-joylar qurilishi 141 ta, xonadonlar esa 4570 tani tashkil etgan. Samarqand shahrining Qorasuv massividagi qurilgan turarjoy massivi hisobiga 2022-yil yakuni bilan ushu ko'rsatkich 148 ta uy-joy, 4736 ta xonadoni tashkil etdi.

Olis va chekka hududlarda aholining munosib turmush kechirishi uchun Yangi O'zbekiston massivlari qad rostlayapti. Urgut va Bulung'ur tumanlaridagi shunday massivlarda qarib 11 ming xonadoni 203 ta ko'p qavatlari uy bunyod etilmoqda. Obyektlarda qurilish ishlari bilan bir qatorda, xonadonlarni kommunikatsiya tarmoqlari ulash, qulay infratizilma yaratish ishlari olib borilmoqda. Ushbu massivlarda muktab, bog'cha, tibbiyot muassasalarini, savdo va maishiy xizmat shoxobchalarini, muktab va maktabgacha ta'lim muassasalarini, raxon yo'llar ham qurilyapti.

Bunyodkorlik ishlari haqida gap boran ekan, "Ipak yo'lli" xalqaro turizm markazi haqida to'xtalmasak bo'limas. Azim shahar bag'ida qad ko'targan ulug'vo'majmuu bugun tom ma'noda xalqimiz, mehmonlar hamda sayyoqlar uchun sevimi go'shalaridan biriga aylandi. 212 hektar maydonda barpo etilgan va yiliga 2 million sayoyha

xizmat ko'rsatish imkoniga ega bo'lgan ulkan majmua milliy me'morchilik an'analarimizga mos ravishda bunyod etildi. Hududda 8 ta zamonaliv mehnemonxonasi, Kongress markazi, "Boqiy shahar" majmuasi, amfiteatr va ko'plab boshqa inshootlar qurildi.

Bundan tashqari, aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun Shirin

shaharchasi qurilishi boshlanmoqda. Bu yerda milliy an'analarimiz uyg'unlashish zamonaviy ko'p qavatlari uy-joylar, dam olish maskanlari, sport-sog'i omolashtirish majmualari, ko'ngilochar va dam olish maskanlari bunyod etiladi.

**Viloyat qurilish va kommunal xo'jaligi boshqarmasi axborot xizmati.**



Girdiqo'rg'on mahallasi Nurobod tumanining eng olis hududida joylashgan. To'rt tomoni qir-adirlar bilan o'ralgani uchun ham hudud shu nom bilan atalgan. Bundan 5-6 yil avval mahallada bo'lgan kishi hozir borsa, tanimay qolishi shubhasiz. Keyingi yillarda amalga oshirilgan obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari natijasida Girdiqo'rg'on shaharcha ko'rinishiga kelgan. Avvalgi pastqam, ko'rimsiz imoratlar o'rnida yangi binolar qad rostildi. Markaziy ko'chalar asfaltlanib, ichki, tuproq ko'chalar shag'allashtirildi.

### Girdiqo'rg'onliklarning tashvishlari ortda qolyapti

#### OBOD QISHLOQ" DASTURI ASOSIDA BOSHLANGAN ISHLAR DAVOM ETYAPTI

2018-yilda Jom qishlog'i hududidagi to'rtta mahalla "Obod qishloq" dasturi asosida ko'rkam hududga aylantirildi. Ular orasida Girdiqo'rg'on ham bor edi.

- Bundan besh yil oldin hududimiz dastur asosida obod

bo'ldi, - deydi mahalla raisi Fozil Bekmurodov. – Namunali loyiha asosida 6 sotixli 50 ta, 2 sotixli 25 ta uy-joy bunyod etilib, foydalishga topshirildi. Ahamiyatlisi, 2 sotixli turarjoylar ehtiyojmand oilalarga bepul berildi. Markaziy ko'chalarimiz asfaltlanib, piyodalar uchun yo'laklar yotqizildi. Shundan buyon bu kabi xayriy ishlari davom etib kelyapti.



(Davomi 3-sahifada) &gt;&gt;&gt;



Yurtimizda hayot darajasini yuksaltirish hamda aholiga munosib turmush sharoiti yaratilishi natijasida **1993-yilda** o'rtacha umr ko'rish darajasi **erkaklar o'rtasida**

**67 yosh, ayollar o'rtasida 67,7 yosh bo'lgan, 2022-yilda erkaklar 71,7, ayollar 75,8 yoshni tashkil etdi.**

### TAYINLOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishi bilan Eshmatov Sirojiddin Tog'aymurodovich Samarcand viloyati soliq boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.



SAVE THE DATE  
**25 UNWTO GENERAL ASSEMBLY**

SAMARKAND, UZBEKISTAN, 16-20 OCTOBER 2023



**UNWTO Bosh assambleyasining 25-sessiyasi Samarqand shahrida o'tkaziladi**

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 16-20-oktobr kunlari Samarqandda o'tkaziladigan sessiyasi turizm va mehmoniyat sohasida Xalqaro investitsiya forumi ham bo'lib o'tadi.

Mazkur xalqaro forumda dunyoning turli davlatlariidan 200 dan ortiq investitsiya kompaniyalari ishtiroki rejalashtirilgan.





## GIRDIQO'RG'ONLARNING TASHVISHLARI ORTDA QOLYAPTI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

### ILMLI BO'LISHGA QIZIQISH ORTDI

Besh yildan beri mahallaning olis hududlarida ham qaysidir dastur asosida yoki hashar yo'li bilan bo'lsa-da, qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshiriyapti.

- Masalan, 2021-yilda mahalla markazidan 20 kilometr uzoqlikda joylashgan Qiziltosh massivida 24 o'rinni mabkab filiali bonyod etildi, - deydi mabkab direktori Erkin Esrigabiyev.

- 2022-yilda esa mahallamiz markazida 420 o'rinni zamonaviy mabkab binosi qad rostladi va zarur sharoitlar yaratildi. Bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalananoyotgan o'qituvchi va o'quvchilar qator yutuqlarni qo'lg'a kiritib kelmoqda. Bundan 10-15 yillarda ilgari avj olgan "shpargal-ka" yoki tanish-bilish bo'limasa, o'qishga kirish qiyin bo'lgan paytlarda bilimli bitiruvchilarimizning ham oly o'quv yurtiga kirish ishtiyogi yo'qolib bordi. Juda ko'p iqtidori shogirdlarimiz yashash uchun kurashish maqsadida o'zini qora mehnatga urdi. Ayrilmari oиласидан олісда пул топиш илніжда мінгір азоб чекди. Кейинги paytda yaratilayotgan imkoniyatlар сабаб bitiruvchilarimizning o'qishga kirish ko'satkichi yildan yilga oshib boryapti.

### ISHSIZ YOSHLAR

#### TADBIRKORLIKKA JALB ETILYAPTI

Mabkab bitiruvchilarining aksariyati turli sabablarla ko'ra oly ta'lili muassasalariga o'qishga kirolmagach, mahallada ishsiz yoshlar sifa ham kengayib boraverdi. Ammo...

- Aslida ishsiz yoshlar ko'p emas, - deydi mahalla yoshlari yetakchisi Obid Abdug'aniyev.

- Ularning ko'philigi (metallom) temir-tersak

chorva mollari sotib olib, ko'paytirmoqda. Shu ishi bilan o'zini-o'zi band qilyapti. Mahallamizdagi hokim yordamchisi ko'magi bilan ana shunday yoshlarmizni aniqlab, tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyatlarni tushuntiryapmiz. Ular uchun imtiyozli kreditlar ajratilyapti. Masalan, mahallamizdagi bir yigitning otasi o'n yillar ilgari xorijda ishslash uchun ketib, baxtsiz hodisa tufayli olamdan o'tgan. Bu voqeaya chetda ishslash istagidagi mahallamiz yoshlari uchun dars bo'ldi. Otasidan ayrligani yigit esa ro'zg'or tebratish uchun qishloqlardan temir-tersak yig'ib, uni qayta ishslash korxonalariga topshirish bilan shug'ullanidi. Bundan tashqari, chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullanib, uyini zamonaviy ko'rinishga keltirdi, avtomashina sotib oldi. Shu kunlarda imtiyozli kredit olib, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida turibdi.

#### BOG'CHAGA BORMAGAN BOLALAR

30 yilga yaqin vaqt davomida tug'ilib, katta bo'layotgan girdiqo'rg'onlik bolalar bog'cha nima ekanligini bilmadi. Keyingi yillarda mabtagacha ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor tufayli katta mahallada bor-yo'g'i biringa 25 o'rinni oilaviy bog'cha faoliyat ko'rsatypi. Mahallada 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan 400 dan ziyod bola bor.

- Ularni mabtagacha ta'lim tashkilotiga qamrab olish choralar ko'rilyapti, - deydi mahalla raisi. - Mahalla markazida davlat mabtagacha ta'lim tashkiloti binosi qilyapti. Shu yilning oktabr oyida foydalananishga topshirilishi rejalashtirilayotgan mazkur bog'chaga 90 nafer bola qamrab olinadi. Shuningdek, nodavlat mabtagacha ta'lim tashkilotlari ham tashkil etilishi ko'zda tutilyapti. Yaqin yillarda

ichida farzandlarimizning qo'shni mahalladagi bog'chalarga qatnashiga hojat qolmaydi va bog'chaga borish uchun katta trassani kesib o'tishda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavflar ortda qoladi.

#### ZAMONAVIY KO'PRIKDAN O'TISH ARMONGA AYLANMADI

Girdiqo'rg'onlik Omon bobo Nazarov 80 yoshda. U esini taniganidan beri mahalla markazidan o'tgan soyda zamonaviy ko'priq bonyod etilishini orzu qilib keladi.

- Sel kelgan paytlarda soyning narigi tarafida, 50 metr narida yashaydigan qo'shninikiga borish uchun 5 kilometr yo'li bosib kelardik yoki aksincha, u tarafдан bu tomoniga o'tishda shunday muammoga duch kelinardi. Ayniqsa, o'quvchilar mabtaga qatnashi oson emasdi. Aholi hashar yo'li bilan bir necha marta ko'priq qurishga urindi, ammol sev oqzib ketaverdi. Mana, bu yil tadbirkor, saxovatpesha mahalladoshimiz 1 milliard so'm mablag' evaziga zamonaviy ko'priq bonyod ettirdi. Ko'priq keng va mustahkam bo'lib, avtomashinalar hamda ikki chetida piyodalar harakatlanshi uchun quaylliklari bor. Qishloqda chang ko'chalar qolmadni, muammoliga yechim topilyapti. Shurkrki, suni kunlarga yetdi.

Bir so'z bilan aytganda, Girdiqo'rg'on mahallasi kundan kunga obod bo'lib, aholisining turmush farvonligi yaxshilanyapti. Shunga yarasha, masalan, mabtagacha ta'lim, tadbirkorlik, yoshlar bandligi va boshqa yo'nalishlarda kamchiliklar ham bor. O'yaylmizki, yaqin yillarda girdiqo'rg'onliklarni qiyayotgan bu kabi tashvishlar ham ortda qoladi.

To'iqin SIDDIQOV,  
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

REKLAMA, E'ONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

#### DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand viloyati hokimligi adliya boshqarmasidan 2000-yil 2-iyunda 171-raqam bilan ro'yxtarga olingen Samarqand viloyati o'rta maxsus kasb-hunar ta'lili boshqarmasi negizida faoliyat olib borgan Barkamol avlod jamiyat (STIR 203297200) o'z ish faoliyatini 2023-yil 1-avgustdan to'liq tugatganini ma'lum qiladi.

Shu munosabat bilan unga bildirladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 237-uy.**

\*\*\*

Samarqand viloyati adliya boshqarmasidan 2012-yil 27-yanvarda 191-raqam bilan ro'yxtarga olingen Samarqand viloyati "AFROSIYOB" mintaqaviy tadqiqot markazi (STIR 205757797) tugatilmoqda.

Shu munosabat bilan unga bildirladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil: Samarqand shahri Universitet xiyoboni, 15-uy.**

\*\*\*

Samarqand tumani hokimligining 2017-yil 19-maydagi 1154-Q-qarori bilan qayta ro'yxtarga olingen ZARAFSHON-1 bog'dorchilik-uzumchilik shirkati shirkat a'zolarining 2023-yil 1-iyuldaggi 1-sonli umumiy yig'ilishi qaroriga asosan, 2023-yil 1-avgustdan tugatilganini ma'lum qiladi.

Shu munosabat bilan unga bildirladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil: Samarqand tumani Uzbekkenti mahallasi.**

\*\*\*

Toyoq tumani hokimligi "UMAROV ZAYNIDDIN ORIPOVICH" (STIR 206325431) fermer xo'jaligi yagona ta'sischihsining 2023-yil 10-avgustdagisi qaroriga asosan, o'z nomini va tashkiliy-huquqiy shaklini "ADAS BARAKA" mas'uliysi cheklangan

jamiyatiga o'zgartiradi. "ADAS BARAKA" mas'uliyi cheklangan jamiyat "UMAROV ZAYNIDDIN ORIPOVICH" fermer xo'jaligining barcha huquq va majburiyatlar bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi. Shu munosabat bilan unga bildirladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil: Toyoq tumani Adas mahallasi.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Toxirov Shukurillova (2019-yil 20-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasida marhum Karayev Nosirga (2020-yil 30-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayeva notarial idorasida marhum Yakubov Sadikga (2004-yil 20-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayeva notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Barakayeva Norxolga (2017-yil 31-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Iстиqlol ko'chasi, 110-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Barakayeva Norxolga (2017-yil 31-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Iстиqlol ko'chasi, 110-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Barakayeva Norxolga (2017-yil 31-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Iстиqlol ko'chasi, 110-uy.**

\*\*\*

## Zilzila sodir bo'lganda nima qilish kerak?

Shu yil Turkiya va Suriya davlatlarida yuz bergan zilzilalar insonlarning tabiat oldida ojizligini va bu boradagi bilimlarni chuqrur o'zlashtirish lozimligini ko'rsatib qo'ydi. Bugungi fan-teknika rivojlangan asrda ham zilzilalarni oldindan aytishning imkon yo'q. Faqat u keltiradigan talafotlarning oldini olish maqsadida tegishli qo'llanmalar mavjud bo'lib, unga muvofiq aniq harakat qilish shart.

Xo'sh, zilzila sodir bo'lganda nima qilish kerak?

Avvalo, yer silkinishi xavfi bo'lganda binodan chiqish yo'lini oldindan belgilab qo'yish zarur. Binoni zudlik bilan tark etish uchun birinchini qavat derazalaridan foydalanish lozim. Yer silkinishi xavfi bo'lganda, uyning eng xavfli joylari - ichki va tashqi deraza ostilari, devorlarning oyna bilan qoplangan qismilari, ayniqsa, oxirgi qavatlardagi burchakda joylashgan xonalari, lift va zinapoya maydonchalar bo'lishi mumkinligini hisobga olish kerak.

Zilzila ro'y berganda, yerning yuzasi uncha uzoq bo'lmagan vaqt tebranib turadi. Yer silkinishi davri - silkinish yer qatlaming yuzasida va yaqin masofada bo'lsa, bir necha soniya, chuqurroq va olida bo'lsa, 2-3 daqiqagacha davom etishi mumkin.

Yer silkinishining to'xtashini kutishdan boshqa chora yo'q. Yer qimirlayotganda xotirjamlik va qab bilan ish ko'sanligiz, talafotsiz chiqishningizga ko'proq imkoniyat bo'ladi.

Agar siz ko'p qavatlari yuning birinchini qavatida, xom yoki pishiq g'ishtli, paxsa devorli uylarda yashasangiz,

zilzila boshlanishi bilan 15-20 soniya ichida darhol udyan tashqariga chiqib keting va elektr simlari, gaz quvurlari va baland imoratlardan tagidan uzoqroqqa, ochiq joyga o'ting. Agar xonaning ichida qolsangiz, xavfsiz joyda turib oling. Mabodo yugoridan suvoq parchalari, yoritkich asboblari, oyna sinqlari tushadigan bo'lsa, stol yoki karovtalar tagiga berkinib oling. Agar siz ko'p qavatlari imoratlarning birinchini qavatidan yugorda bo'lsangiz, hech qachon lift yoki zinapoyalarga qarab yugurmag, chunki ko'p hollarda yeri qimirlash davrida zinalar birinchini navbatda quaydi. Bunday hollarda yuning eshigini ochib, uning o'rninga turgan.

Qishloq joylarida yer silkinishi oqibatida yer ko'chkisi ro'y berishi, sel kelishi, tog' toshlar tushishi mumkin. Shuning uchun tepaliklar ustiga yoki suv bosmaydigan, yugoriroq joyga chiqib olishga yoki tik tog' yonbag'irlari ostidan uzoqroq joylarga o'tishga harakat qiling.

**Sherzod MURODOV, viloyat FVB Samarqand shahar bo'limi xodimi, kapitan.**



Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Sobirov Akbarga (1980-yil 29-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.**

\*\*\*

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Jumayev Raxmatillo Fayzilloyevichga (2022-yil 12-yanvarda vafot etgan) teg

Bugun har bir sohada ilg'or texnologiyalar hayotga tatbiq etilyapti. Bu qadim tarixni qayta jondantiruvchi muzeylar ishida ham o'z aksini topmoqda. Xususan, yangicha g'oyalar asosida faoliyatni yo'iga qo'yish, muzeysunoslik sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish ana shu yangilanishlardan darak beradi.

2022-yil 18-19-noyabr kunlari Toshkent shahridagi O'zbekiston zamonaviy san'at galereyasida O'zbekiston va Rossiya muze yodimlarining birinchi anjumani bo'lib o'tgan edi. Ushbu anjumandan ko'zlangan maqsad muze yodimlarining II anjumani tashkil etildi.

- Anjumanda sohada o'zaro hamkorlikning navbatdagi bosqichlari muhokama qilindi, - deydi Samarqand davlat muze y-qo'rinoxonasi bosh direktori Xo'jaqul Muhammadiyev. - Xusu-

## TULADA MUZEY XODIMLARI ANJUMANI BO'LIB O'TDI

mutaxassislari o'rtasida muloqot tashkil etish, shuningdek, muzeylar o'rtasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirishdan iborat bo'ldi. Tadbirlar so'ngida navbatdagi anjumanni Rossiyaning Tula shahrida o'tkazishga kelishilgan edi.

Vazirlar Mahkamasining tashabbusi bilan 2023-yil 2-5-avgust kunlari Tulada O'zbekiston va Rossiya muze yodimlarining II anjumani tashkil etildi.

- Anjumanda sohada o'zaro hamkorlikning navbatdagi bosqichlari muhokama qilindi, - deydi Samarqand davlat muze y-qo'rinoxonasi bosh direktori Xo'jaqul Muhammadiyev. - Xusu-

san, O'zbekiston va Rossiya muzeylari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, har ikki davlat muzeylari o'rtasida hamkorlik memorandumlarini imzolash, ushbu hujjatlar asosida muzeylar xodimlari ning malakasini oshirish, muzeylarda yangi xizmat turlarini joriy qilish orqali tushumlar miqdorini oshirish bo'yicha takliflar bildirildi. Shuningdek, muzeylarda ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish, muzeylar fondlarining saqlash sharoitlarini yaxshilash, muzeylarda saqlanayotgan restavratsiyaga muhitoj ashyolarning ta'mirlanishi bo'yicha o'zaro hamkorlik qilish, sohada joriy



etilayotgan yangiliklar bo'yicha o'zaro fikr almashildi.

Anjuman doirasida "Mustahkam do'stlit qal'asi. Rossiya Federatsiyasi

va O'zbekiston Respublikasining harbiy-muhandislik inshootlari merosi" nomli ko'rgazma ochildi.

Sulaymon MARDIYEV.

## Kollej va texnikumlarga qabul parametrlari tasdiqlandi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i bilan 2023-2024-o'quv yilida viloyatimizdagi 12 ta kollej va 21 ta texnikuma kunduzgi, kechki, sirtqi va dual ta'lim shakllari bo'yicha 11265 ta qabul kvotasi tasdiqlandi.

Respublika Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi qaroriga asosan, 2023-2024-o'quv yilidan boshlab So'zangaron tibbiyot kolleji - So'zangaron Abu ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumiga, Payariq tibbiyot kolleji - Payariq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamiyat salomatligi texnikumiga aylantirildi.

Yangi o'quv yilidan 12 ta kollejda, ya'ni Samarqand qurilish kolleji, Kattaqo'rg'on shahar, Bulung'ur, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Nurobod, Oqdaryo, Past Darg'om, Paxtachi, Toyloq, Urgut, Qo'shrabot pedagogika kollejlardira 3 ta kasb va mutaxassislik bo'yicha 720 ta o'rинга dual ta'lim shakli bo'yicha qabul parametrlari tasdiqlandi. Shuningdek, Samarqand temir yo'l texnikumi, Samarqand veterinariya meditsinası texnikumi, Samarqand arxitektura-qurilish texnikumi, Samarqand turizm va madanly meiros texnikumi, Jomboy agrotexnologiyalar texnikumlariga 23 ta kasb va mutaxassislik bo'yicha 505 nafar talaba dual ta'lim shakliga qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 715-son qarori talablariga muvoqfa, kollej va texnikumlarga qabul jarayonlari har yili 10-avgustdan 10-sentabr kuniga qadar amalga oshirilishi belgilangan.

Shu munosabat bilan 2023-yil 10-avgust kunidan boshlab kollej va texnikumlarga vazirlikning <http://my.edu.uz/> platformasi orqali abiturientlarni onlayn ro'yxtarga olish boshlandi.

Otajon NOROV,  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
vilotat hududiy boshqarmasi yetakchi  
mutaxassisi.

## Yozuvchi yon daftaridan

**Sevmagan mashg'ulot.** Bunga ko'nikish dushvor. Ertalabdan kechgacha so'niq kayfiyat seni tark etmaydi.

**Mansab** teatr tomoshasiga o'xshaydi. Hayotda bu rolingni qoyilmaqom bajarmasang, jamiyat seni...boshqasi bilan almashtiradi.

**Birovning siri** va gapini rahbarlarga tashib yurib, lavozimga o'tirgan kishi eng tuban kimsadir.

**Yovvoyi bozor** iqtisodi ishlagan davrda aksar ishlar pul orqali bitadi, u yetarli bo'lмаган taqdirda, balo-ofatga yo'liqishning ehtimoli ko'payadi.

**Kino** aqni o'tmaslashtiradi, kitob aqni charxlaydi. Bekorhilik odamni safsatobozga aylantiradi, bozorda ishlash - pul kasaliga yo'liqtiradi.

**Televizor** baloi ofat: oldin tanangni, keyin ongni, so'ng qalbni zaharlaysi. Oxirgi ishi - umringni qisqartiradi.

Baxtiyor OMON,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi.

Asqarning ko'zi suratxona devorida boshida iroq do'ppi, egnida xonatlas, shahlo ko'zları, g'uncha labi xiyoł noz bilan kulimisrab, o'ng yelkasi osha ko'ksida to'lg'anib turgan sochini nozik barmoqlari bilan o'rayotgan qizning suratiga tushdi: "Go'zal ekan!".

Asqar bundan ham chiroyli qizlarni uchratgan. Ammo hech qachon hozrigide vujudiga o't tutashmagandi. Xayolida onaizorining o'ksik ittiosi jonlandi.

- Bolam, o'qishni bitirib ishlayotganingga anche bo'ldi. Bundoq uylanishni ham o'ylaysanmi? Otang rahmatli tirk bo'lganda, allaqachon boshingni ikkita qilib qo'yardi. To'rt kunligim bormiyo'omi, ko'zin tirikligida kelin olsam, nabiramni bag'rimga bossam, - deyman, derdi Adolat aya ko'z yosh qilib.

- Hali yosh bolaman-ku, enajon, endi yigirma besghi kirdim, - derdi Asqar gapini hazilga burib.

U uylanish haqida ko'p o'ylardi. O'zi biladigan bir-biridan suluv qizlar ko'p edi. Biroq ko'z-ko'zga tushganda yurak qurg'ur jiz etmasa, nima qilsin?

Asqar suratga tushgach, qizning suratiga ishora qilib, suratkash yigitga gap qotdi.

- Chiroyli ekan!

- Ha, qizlarning bunday original suratlari kamdan-kam chiqadi. Illohiy holatni hamisha ham ilg'ab ololmaymiz!

- Kechirasiz, mabodo qizning ismini, manzilini bilmaysizmi?

- Yo'q, mijozlarning shaxsi bizni qiziqtirmaydi. Yoqtirib qoldingizmi, deyman?

- Yo'g'ey, o'zim shunchaki so'radim-da, - dedi Asqar qizari.

- Suratingiz bir soatdan keyin tayyor bo'ladi, biroz aylanib kelishingiz mumkin!

Asqar kelanida surati tayyor bo'libdi.

- Uka, agar mumkin bo'lsa, o'sha qizning suratini berolmayszimi? Esdalikka-da!

- Uni berolmayman-u, kutib tursangiz, nusxasini chiqarib berishim mumkin.

Suratkash yigit ichkariga kirib ketdi va birozdan so'ng qizning suratini olib chiqdi.

- Mana, ehtiyyot bo'ling, hali yaxshi qurigani yo'q.

- Rahmat! - Asqar cho'ntagidan pul chiqarib uzatdi.

- Kerakmas! - suratkash yigit uning qo'lini itardi. - Faqat Ittimos, qizni uchratsangiz, suratini bizdan olganingizni bilmasim, baloga qolib yurmaylik. Xo'p, xayr, omadingizni bersin!

Asqar suratni avaylab yon cho'ntagiga solidi. Uning xayoli qizda bo'lib qoldi. Na yotgani, na turgani, na yegan, na ichganida halovat bor. "Es-hushimdan ayrimasmasi edi. Qiz allaqachon bir yigitning tan mahramiga aylangan bo'lsa-chi?".

U yolg'iz qoldim deguncha suratga tikiladi. Qizga g'oyibona izhori dil qiladi. Kunlar ketidan kunlar o'tar, ishq alangasi tobora kuchliroq uni domiga tortardi. Bugun tushlikka ham chiqmadi. Hamkasbilar ovqatlanishga ketgach, cho'ntagidan qizning suratini olib, shirin xayollar og'ushida unga tikildi. Shu alpozda hamkasbi, shaddod Shohista tushlikdan qaytb, tepasiga kelganini ham sezmadni.

- Xo'p! - Shohista uning qo'lidan suratni olib oldi. Cho'chib tushgan Asqar suratga yopishdi.

- Shohista, bering suratni, hazillashmang! Shohista Asqarning qo'lini itarib, suratni tomosha qildi.

- O'h-ho', hurliqo-ku, sevgan qizingizmi? - Yo'q, tanimayman, - xo'rsindi Asqar. - E, to'xtang, to'xtang, bu Risolat-ku! - Shohista suratga sinciklab razm soldi. - Ha, xuddi o'zi. - Risolat? Qanaqa Risolat? - Asqar g'uldirab goldi.

- Tushunarli, - Shohista sharaqlab kulib yubordi, - yuragingizdan uribdi-da! - Keyin kulishdan to'xtab, jiddiy tortdi. - Tanimasangiz, suratni qayerdan oldingiz?

- Nima, siz uni taniyiszmi, qayerda, nima ish qiladi, turmushga... - Asqar hovliqib, savolga savol qalaشتirib tashladi.

- Ha, taniyman, qishloq dosh dugonam edi.

- Nega "edi" deyapsiz? U...

- Yo'q, yo'q, yomon xayolga bormang, u hayot. Men turmush qurib, shaharga ko'chib ketganimizdan keyin unni ko'rganim yo'q, - dedi Shohista ma'yus tortib. - Faqat bilganim shuki, Risolatning shaydosi ko'p edi. Instituti bitirib, qishlog'imizda maktabda ishlay boshlad. Bir yigitga unashtirishdi. To'y arafasida Risolat xastalikka chalinib goldi. Unashtirilgan yigit buni eshitgach, to'yni to'xtatib, boshqa qizga uylanib ketdi. Bu Risolatga og'iz zarba bo'ldi. Xastaligi kuchaydi, sil kasaliklar shifoxonasida davolanih turadi. Mana, ikki yildirik, uning taqdiri nima bo'ldi, bilmayman.

Shohista Risolatning suratini Asqarga qaytib berib, ma'yus tortdi. Vo darig', Asqar Shohistadan qizning ismi, manzili daragini eshitib, avval yosh boladagi sevingan bo'lsa, qismatini eshitib, ich-ichi-dan kuyindisi. Qalbida ishq alangasi battar lovvulladi. Tezroq Risolat bilan uchrashib, unga sevib qolganini, usiz yashay olmasligini aytish payiga tushdi. ...Darvozani istarsi issiqliqqa onaxon ochdi.

- Kimsiz, sizga kim kerak?

- Bu Risolatning uyimi?

- Ha, nima edi?

- Mening ismim Asqar, uni ko'rmoqchi edim...

- Risolat, bu yoqqa chiq, seni so'rab kelibdi.

- Kim ekan, enajon?

Risolat onasi yonida turgan notanish yigitni ko'rib, to'xtab goldi.

- Bo'pti, ichkarida bo'laman! - Tojihol momo Asqar bilan Risolatni yolg'iz qoldirib, uya kirib ketdi.

- Siz kimsiz, meni qayerdan taniyisz? - Risolat hayron bo'lib, Asqarga qaradi.

- Ismim Asqar, sizni mana bu surat orgali taniyman. - U cho'ntagidan Risolatning suratini chiqarib ko'rsatdi.

- Voy, mening suratim-ku, qayerdan oldingiz?

- Hayajonlanmang, buning tarixi uzun. Bu yer noqlay, mumkin bo'lsa, ichkariga kirib, batafsil

- Onajon, Risolat, avvalo, xabarsiz so'roqlab kelganimni odobsizlikka yo'yamsiz. Gapni cho'zib o'tirmayman, muddaomni ayta qolay. Agar hozir aytmasam, keyin hech qachon aytolmasam kerak.

Asqar o'zi, oilasi, Risolatning surati, uni g'oyibona sevib qolgan haqida hayajon bilan aytib berdi.

- Risolat, men sizsiz yashay olmayman, menga turmushga chiqing! Bilaman, hammasidan xabar-dorman, dugonangiz Shohista bilan birga ishlaymiz. Hammasini aytib berdi.

Tojihol momo bilan Risolat tomdan tarasha tushganday paydo bo'lgan notanish yigitning telbanamo so'zlarini eshitib, karaxt bo'lib qolgandi.

- Uzr, - dedi Risolat ovozi titrab, - buning iloji yo'q. Men baxti qaro, notavon qizman. Turmushga chiqishim, farzand ko'rishim mumkin emas ekan. Sizni ham baxtsiz qilishni xohlasmayman.

- Risolat, bu gaplarni xayolingizdan chiqaring. Men sizni topgunimcha ozmuncha iztirob chekmadam. Endi yo'qtishni istamayman. Mana, ko'rasiz, sizni baxtli qilaman. Yo'q, desangiz, menga bu dunyoda yashashning ma'nosini qolmaydi. O'tinaman, bu so'zlarni balandparvoz gaplarga yo'yang.

- Bu haqidagi onangiz biladimi? - Tojihol momo luqma tashladi.

- Yo'q, hali aytganim yo'q. Bugun aytaman, albatta, rozi bo'ladilar. Ertaga sovchilar kelishadi.

...Asqarning qarorini eshitgan Adolat aya ganib qoldi.

- Hoy, bola, esingni yeb qo'yibsan, nima, endi bir umr xasta xotin bilan yashab, umringni xazon qilmoqchimisan? O'pka siliyuqumiligi, tug'iladi-gan bolalarga o'tishi mumkinligini bilasanmi? Yo'q, men aslo rozimasam.

- Onajon, ko'rasiz, biz baxtli bo'lamic. Men uylansam, faqat Risolatga yulananaman...

Yo qudratingdan, Allohnning Asqarning ko'ngliga solgan ilohiy muhabbat otashi Risolatga ham ko'chdi. Hayotdan umidini uzgan, tani ham, qalbi ham xasta qiz to'yan keyin baxtiyor yigit yonida g'amgin kunlarini unutdi. Sevilish, sevish tufayli u batamom tuzalib ketdi. U bir paytlar Asqarning qalbida ishq olovini yoqqan o'sha suratidagidan o'n chandon go'zal farishtaga aylangandi. Ularning muhabbatiga, ahil oиласи, shirin farzandlariga hammaning havasi kelardi.